



BUXORO AMIRLIGI TASHQI SIYOSATI.

Xurramov Diyorbek Bahromovich.

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi.

Raxmatova Sarvinoz Ergashevna.

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi.

Poyonov Abdusamad Bahodir o'g'li.

Ilmiy raxbar: Poyonov Abdusamad Bahodir o'g'li.

Abstract. This scientific article has received a two-century government in U.S., and the next representative of the Sensit of Mantiti, as well as Nasrullaman's father Amir Haydar in the Bukhari era, many years It is given a wide range of information that the fact that the state and the United Kingdom was beaten by the local and Russian historians and raising the local apparatus, uniting the state of carving.

Keywords: Amir, Emirate Mangit Dynasty, Public administration, reform, Embassy, economics, economics, Russia, Britain.

Аннотация. В данной научной статье очередной представитель Мангытской династии, имевшей статус и положение в Средней Азии в XIX веке, приход к власти под руководством Амира Насруллы, был широко изучен и проанализирован местными и российскими а британские историки как консолидировавшие государственный аппарат, объединив территории, которые с тех пор находились в беспорядке.

Ключевые слова: Амир, эмиратская династия Мангут, Глава государства, Реформа, Посольство, Территориальное Управление, Экономика, Политика, Россия, Британия. Кушни Штаты.

Annotatsiya. Usbu ilmiy maqolada O'rta Osiyoda XIX asrda o'z o'rni va mavqeyiga ega bo'lgan hamda hukmronlik qilgan Mang'itlar sulolasining navbatdagi vakili—Amir Nasrulloxonning Buxoroda hokimiyatga kelishi va davlat boshqaruvida amalga oshirilgan o'ziga xos islohotlar, shuningdek Nasrulloxonning otasi Amir Haydar davridagi ayrim qoidalarni yangilagani, ko'p yillardab buyon tarqoq holda bo'lgan hududlarni birlashtirib, davlat aparatini ancha mustahkamlagani mahalliy va rossiyalik hamda britaniyalik tarixchilar tomonidan o'rganilib tahlil etilgani haqida keng ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Amir, amirlik, Mang'it sulolasi, davlat boshqaruvi, islohot, elchilik, iqtisod, siyosat, Rossiya, Britaniya.

KIRISH (INTRODUCTION)

Milliy davlatchilik tarixidan ma'lumki, mamlakatimizning taraqqiyoti davomida uning hududida bir qator yirik davlatlar tarkib topgan va ko'plab sulolalar o'z





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

hukmronligini amalga oshirgan. Shuning uchun ham Buxoro amirligining tashqi siyosati va diplomatiyasini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Ushbu masalalar yuzasidan bir qator sharqshunos, o'lkashunos va tarixchi olimlar tomonidan muayyan darajada ilmiy tadqiqotlar olib borilganligini ham e'tirof etish lozim. Ular qatorida xususan, D.Valieva, B.Mannonov, Ye.K.Meyendorf, G.A.Mixaleva, Z.Rahmonqulova, M.Sodiqov, H.To'raev, A.A.Semenov, N.A.Xalfin, B.Xo'jaeva va boshqalarning ilmiy izlanishlarini ko'rsatib o'tish mumkin.


Mavzuga doir adabiyotlar quyidagicha guruhlariga bo'linadi:

1. Mahalliy matbuot materiallari;
2. Esdaliklar, qaydlar, esdaliklar;
3. Chor rossiyasi, sovet davri matbuoti materiallari va ushbu davrda olib borilgan tadqiqotlar;
4. Mustqailik yillarida yurtimizda va horijda chop etilgan tadqiqotlar,

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)


Shu bilan birga, mazkur izlanishlarda tashqi siyosat va diplomatiya tarixiga oid bo'lgan manbalar yetarli tarzda tahlil etilgan deb bo'lmaydi. Ularda Buxoro amirligining ayrim hukmdorlari tashqi siyosatiga qisman e'tibor berilib, asosan ma'muriy tuzilish, yer-suv munosabatlari, soliq tizimi, davlat mansab va unvonlariga oid ayrim jihatlar o'rganilgan, xolos. Masalan, A.A.Semenov tomonidan amir Haydarning Rossiya podshohi Aleksandr I ga yo'llagan maktublari, G.A.Mixaleva tomonidan esa Buxoro amirligi bilan Rossiya o'rtasidagi savdo-sotiqqa oid aloqalar o'rganilgan. Shu jihatdan olganda, Buxoro amirligi diplomatik aloqalarining huquqiy asoslari, tashqi siyosatining tamoyillari, qoidalari hamda o'ziga xos xususiyatlari amalga oshirilgan tadqiqotlar doirasidan chetda qolib ketganligini qayd etish lozim. Yuqoridagilarni inobatga olib, bizning fikrimizcha, ushbu davrda amalga oshirilgan tashqi siyosatning quyidagi masalalarini o'rganish muhimdir. Chunonchi, - tadqiq etilayotgan davr yirik davlatlarning o'zaro nizolari, urushlari davriga to'g'ri kelganligi va shu munosabat bilan Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati pasayishi sharoitida olib borilgan diplomatik aloqalarning o'ziga xosligi; - mamlakatda mahalliy-urug'larning o'zaro kelishmovchiliklariga qaramasdan tashqi siyosiy aloqalarning muayyan darajada olib borilganligi; - Buxoro amirligining tashkil topishi jarayonida Eron va Buxoro davlatlari o'rtasida yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqib, mamlakatning mustaqilligini saqlab qolish maqsadida oqilona diplomatik siyosat yuritilganligi; - Rossiya imperiyasiga qaramlik sharoitida Buxoro amirligining olib borgan tashqi siyosat va diplomatik aloqalarining o'ziga xosligi kabi masalalarni o'rganish shular jumlasidandir. Shu bilan birga, bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarni tahlil etish orqali mang'it hukmdorlaridan Amir Haydar, Amir Nasrullo, Amir Muzaffar va Amir Abdulahadlar hamda qisman Amir Said Olimxon davrida diplomatik





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

aloqalarning bir muncha faol kechganligini ko'rishimiz mumkin. Amir Haydar hukmronligi davrida O'rta Osiyo davlatlari – Xiva va Qo'qon xonliklari, Rossiya, Eron, Afg'oniston, Xitoy hamda Usmoniylar davlati bilan xalqaro iqtisodiy, madaniy va siyosiy huquqiy munosabatlarni shakllantirish maqsadida elchilik aloqalarini yanada mustahkamlashga harakat qilingan. U o'z sulolasidan bo'lgan boshqa amirlardan farqli o'laroq, mang'itlar hukmronligini mustahkamlash, ichki va tashqi muxoliflarga qarshi kurashda qator muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishga erishgan davlat boshlig'i sifatida ajralib turadi. XIX asrning birinchi yarmida, ya'ni amir Haydar hukmronligi davrida Buxoro va Rossiya davlatlari o'rtasida doimiy faoliyat yuritib turadigan vakolatxonalar yoki elchixonalar va ikki davlat o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladigan shartnomalar mavjud bo'lmagan. Vaqti-vaqti bilan yuborilib turiladigan elchiliklar har ikkala mamlakatda oylab-yillab istiqomat qilib, o'rtadagi savdo-sotiq muammolari va boshqa masalalarni muhokama qilar va ular yuzasidan davlat boshlig'ining ruxsatini olar edilar. Elchiliklar odatda, siyosiy va iqtisodiy aloqalar borasida munozaralar olib borish yoki muhim voqealardan axborot berish uchun yuborilar va ularning maqsadi amir yorlig'ida bayon qilinardi. 1809 yilda Rossiyadan Buxoroga "maxfiy suratda yana bir konfident – poruchik Odilnosir Subhonqulov Orenburg harbiy gubernatori nazorati ostida yuboriladi". Poruchik Subhonqulov missiyasi dastlab Buxoro amirligi hamda Rossiya davlatlari o'rtasidagi karvon savdolarining xavfsizligini ta'minlash, aniqrog'i qaroqchilar tomonidan talon-taroj qilingan savdo karvonlari masalasini hal qilish hamda Rossiya-Buxoro davlatlari hamkorligida o'zaro jinoyatchilikka qarshi kurashish, shu bilan birga, Rossiyadan qochib Buxoroda boshpana topgan soxta pul yasovchi Xamitov va uning sheriklarini Rossiya davlatiga topshirish bilan bog'liq masalalar bilan shug'ullangan. O'z navbatida, amir Haydar javob xatida bunday masalalar faqatgina ikki davlatning boshliqlari tomonidan hal qilinishi, ya'ni amirga faqat bevosita Rossiya davlati boshlig'i murojaat qilishi lozimligi haqida bayon etadi. Buxoro amiri Haydar o'zining ana shu maktubi bilan davlatlararo qonunqoidalarga rioya etish masalasini eslatib, unga tanbeh berish bilan birga, xalqaro miqyosda Buxoro amirligining mustaqil davlat sifatida obro'-e'tiborini saqlashga naqadar katta e'tibor berib kelganligini ham namoyon etadi. Amir Haydar hukmronligi davrida Buxoro va Rossiya davlatlari o'rtasidagi munosabatlar bir tomonlama xarakterga ega bo'lmaganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Xususan, 1820 yilda Rossiya davlatidan Buxoroga javob tariqasida A.F.Negri boshchiligida birinchi marotaba rasmiy elchilik tashrif buyurgan. A.F.Negri boshchiligidagi elchilik savdo aloqalarini yanada rivojlantirish masalalarini muhokama qilish bilan birga, yana bir qator maxsus vazifalarni hal etish uchun yuborilgan edi. Xususan, ushbu missiya zimmasiga Buxoroga qo'shni bo'lgan Qo'qon xonligining iqtisodiy, siyosiy ahvoli, davlat boshqaruvi masalalari, boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabati haqida ma'lumotlarni yig'ish, Buxoro amirligining Eron, Turkiya, Xiva va afg'onlar bilan bo'lgan munosabatlarini qay holatda ekanligini o'rganish, Sirdaryo va Amudaryoda kemalar





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

xizmati, uning mavjudligi yoki boshqa ma'lumotlar, Qobul, Qandahor, Kashmir, Panjob vohalarining siyosiy va iqtisodiy ahvoli xaqida haqiqatga to'g'ri keluvchi ma'lumotlarni yig'ish va ushbu hududlarda Yevropa mollariga bo'lgan talab va ehtiyoj darajasini o'rganish kabi bir qator masalalar yuklangan edi. Yuqoridagilardan ham ko'rinib turibdiki, Rossiyaning hukmron doiralari Buxoroga yuborgan dastlabki rasmiy missiyaning o'zidayoq Markaziy Osiyoni o'z ta'sir doirasiga olish va ushbu hududni butunlay bosib olish maqsadini amalga oshirish imkoniyatlarini o'rganishga harakat qilgan. Amir Haydar o'z navbatida Usmoniylar imperiyasi va Eron davlatlari bilan ham tashqi siyosiy va diplomatik munosabatlarni mustahkamlash maqsadida bir qancha elchilik aloqalarini olib borgan. Amir Nasrulloning tashqi siyosatda qattiqqo'l va shafqatsizligini bilan nom chiqargan. Buni inobatga olib, Xiva xoni 1845 yilda Buxoroga Rahmatullo Qorako'zni elchi qilib yuboradi. Ushbu elchilikning asosiy maqsadi Buxoro amiri Nasrulloning Xiva bilan diplomatik munosabatdagi asl niyatini aniqlash bo'lgan. 1845 yilda Xivadan kelgan elchilik amir Nasrullo tomonidan samimiy niyatlarda kutib olinsada, lekin uning Xiva bilan asl maqsadi, ya'ni tinchlik yoki urush olib borish niyatidaligini aniqlashning imkoni bo'lmaydi. 1856 yilda Xiva xonligi tomonidan amir Nasrullo huzuriga ikkinchi marotaba elchilik jo'natiladi. Biroq bu safar madad va ko'mak bilan kelgan elchilik hech qanday natijasiz qolib, Amudaryo yaqinida elchilikning barcha vakillari qirib tashlanadi. Biroq, ushbu davrda Buxoro va Xiva davlatlari o'rtasida muayyan darajada tashqi iqtisodiy aloqalar faol kechgan edi. 1858 yil ad'yutant N. P. Ignatev boshchiligidagi Rossiyadan Buxoro va Xivaga elchilik guruhi tashrif buyuradi. Ushbu missiyaga bir qator ko'rsatmalar beriladi: O'rta Osiyodagi vaziyatni to'liq o'rganish; Rossiyaning ushbu davlatlardagi mavqeini mustahkamlash; inglizlar aralashuviga chek qo'yish. Shu bilan birga, elchilikka boj to'lovlarini kamaytirish, Buxoroga savdo agenti kelishiga ruxsat olish va rus kemalarining Amudaryoda erkin suzishiga ruxsat berilishi kabi masalalarni hal etish topshiriladi. Bunda Rossiya davlati tomonidan Buxoro va Xivani tashqi kuchlardan himoya etishga yordam ko'rsatilishi ham nazarda tutiladi. N.P.Ignatev elchiligi amir Nasrullo tomonidan munosib kutib olinib, davlatlar o'rtasida o'zaro savdo-sotiq va xavfsizlik masalalarida kelishib olingan. Ushbu davrda Amir Nasrullo tomonidan ingliz elchilarining qabul qilinmasligi N.P.Ignatev boshchiligidagi missiyaning muvaffaqiyatli yakunlanishiga muayyan darajada ta'sir etadi. Buxoro taxtiga kelgan Amir Muzaffar davlatni boshqarish masalasida asosiy e'tiborni amirlikning xalqaro aloqalarini yangi bosqichga ko'tarishga harakat qilgan. Xuddi shu davrda Rossiya imperiyasining tajovuzi kuchayotgan keskin bir vaziyatda amir Muzaffar markazlashgan Buxoro davlati hamda butun Turkiston hududini dushmanlardan saqlab qolish uchun Angliya, Fransiya, Italiya davlatlari va Turkiya sultonligi bilan o'zining ochiq va maxfiy diplomatik aloqalarini o'rnatgan. Amirlik o'z elchilari orqali Angliyaning Hindistondagi vakillari va Turkiya sultonligi, shuningdek, Fransiya hamda Italiyaga harbiy-siyosiy aloqalar o'rnatish takliflari bitilgan diplomatik nomalarini jo'natgan. Amir Muzaffar davridagi tashqi siyosiy masalalar xususida





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

sharqshunos olim M.Sodiqov quyidagi ma'lumotlarni beradi, ya'ni amir Muzaffar tomonidan Porso Xo'jani diplomatik maktub bilan Turkiya sultoniga elchi qilib jo'natganligini, maktubda Buxoroga, nasroniylarga qarshi kurashda yordam so'ralganligini hamda Turkiyadagi diplomatik missiya natijasiz tugaganligini qayd etadi. Mang'it amirlarining so'nggi vakili amir Said Olimxon (1910-1920y.) hukmronligi yillarida davlatda tashqi siyosiy va diplomatik masalalar deyarli mustamlaka ahamiyatiga ega bo'lgan. Bu davrga kelib Buxoro amirligi faqatgina Afg'oniston davlati bilan Chor hukumatiga qarshi kurashish maqsadida yashirin diplomatik aloqalarni olib borgan edi. Chor Rossiyasi qulaganidan keyin Muvaqqat hukumat va Buxoro amirligi o'rtasida kelishuv tuzilib, unga Muvaqqat hukumat tarafidan A.G.Preobrajenskiy va amir Said Olimxonlar imzo chekadilar. Afg'on davlatidan Buxoroga muxtor vakil sifatida tayinlangan Muhammad Valixon amirga tashqi siyosiy masalalarda o'zining kerakli maslahatlarini berib, din va millat uchun yakdil kurashda tayyor ekanligini bildiradi hamda Fazl Ahmadxon boshchiligidagi ikki yuz nafar askar, yetti to'p va yettita filni yuborgan edi. Amir Olimxon davlatni boshqargan yillari Sovet Rossiyasi bilan ham muayyan darajada diplomatik aloqalar olib borilgan. Jumladan, Kolesov boshchiligidagi to'qnashuvlardan so'ng sulh tuzish maqsadida bolsheviklarning vakili sifatida Sh.Z.Eliava muxtor vakil sifatida Buxoroga keladi. Bolsheviklar vakili amir Olimxonga davlatni mustaqil qilib berish va harbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda moliyaviy jihatdan yordam berish kabi va'dalarni bergan edi. Shundan so'ng Buxoroga Sovet Rossiyasining rasmiy elchisi sifatida P.B.Akselrod tayinlanadi. Mavjud siyosiy vaziyatdan foydalangan amir Said Olimxon mustaqillik uchun kurashish maqsadida Xiva xonligi bilan xufyona diplomatik aloqalarni olib borsada, biroq muvaffaqiyatsizliklarga duch keladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mang'itlar hukmronligi davrida amalda bo'lgan tashqi siyosat va diplomatiya bugungi kun mustaqil O'zbekiston davlatining tashqi siyosatini erkin, mustaqil va teng huquqli a'zo sifatida yuritishida tarixiy-huquqiy amaliy manba bo'lib xizmat qiladi. Chunki milliy davlatchilik tarixining har qanday bosqichi tashqi siyosiy va diplomatik munosabatlar negizida o'zaro do'stlik, hamkorlik, tinch-totuvlik va xalqlar, millatlar do'stligi asos bo'lib xizmat qilib kelgan.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Маннонов Б. Ўзбек дипломатияси тарихи. – Тошкент: ЖИДУ, 2005. – Б.149.
2. Огаҳий. Гулшани давлат: Қўлэзма Ўз ФА ШИ, инв. № 7572. 416-42а варақлар.
3. Валиева Д. XIX асрнинг биринчи ярмида Бухоро ва Хиванинг ташқи иқтисодий алоқаларига доир // “Инсониятнинг маданий мероси – учинчи минг йилликка” Бухоро ва Хива 2500 йил: Халқаро симпозиум тезислари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б.46-48.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

4. Халфин Н. А. Политика России в Средней Азии (1857—1868). — М.: Изд. Вост. лит., 1960. —С.102.

5. Халфин Н. А. Три русские миссии. — Ташкент: Изд. САГУ, 1956. — С.58. 13. Содиқов М. Амир Музаффарнинг дипломатик ёзишмаларига доир янги маълумотлар (1860-1868) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. — Тошкент, 2002. - №1. — Б.69.

6. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халкининг ҳасрати тарихи. — Тошкент: Фан, 1991. — Б.9-10.

7. Temirov F., Umarov B. Practical application of family, marriage and inheritance rights in bukhara emirates // Scientific progress. - 2021. - Т. 2. - №. 1. - S. 1201-1207.

8. Temirov F. Xalikova N. From the history of foreign policy and development of diplomacy in the emirates of bukhara // Scientific progress. - 2021. - Т. 2. - №. 1. - S. 1276-1282;

9. Temirov F. PUBLISHING AND LIBRARY ACTIVITIES OF THE TURKESTAN JADIDS. International Journal of Intellectual and Cultural Heritage. Volume: 2 Issue: 01 | 2022

